


ISSN 2181-0000  
Doi Journal 10.26739/2181-0000

# JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



Volume 4, Issue 6 **2026**



ISSN 2181-0000  
Doi Journal 10.26739/2181-0000



# «MA'MUN SCIENCE» JURNALI

4 JILD, 6 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 4, HOMEP 6

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 4, ISSUE 6



TOШKENT-2026

# «MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «МА'МUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

№6 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2026-6>

Бош мухаррир: | Главный редактор:  
Chief Editor:

**Matyakubov Umidjon Raximovich**  
(i.f.d., prof.)

Бош мухаррир ўринбосари: | Заместитель  
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

**Xudonazarov Egambergan Madrahimovich**  
(PhD., dots.)

## TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

### FILOLOGIYA FANLARI

**O'rozboyev Abdulla Durdibayevich**

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Axmedov Oybek Saporboyevich**

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

**Galiyeva Margarita Rafaelovna**

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

**Nasrullayeva Nafisa Zafarovna**

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Samarqand davlat chet tillari instituti

**Cho'ponov Otanazar Otojovich**

Filologiya fanlari doktori (DSc)

Urganch davlat universiteti

**Yakubova Matluba Tajibayevna**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

**Matnazarov Javlanbek Kabulovich**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

### TARIX FANLARI

**Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev**

Tarix fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi Fanlar

akademiyasining haqiqiy a'zosi

**Ashirov Adhamjon Azimbayevich**

Tarix fanlari doktori, professor,

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

**Shaydurov Vladimir Nikolayevich**

Tarix fanlari doktori, dotsent

Leningrad davlat universiteti Rossiya

**Abdullayev Utkir Ismoilovich**

Tarix fanlari doktori (DSc),

dotsent Urganch davlat universiteti

**Matkarimova Sadoqat Maqsudovna**

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

**Abdullayev Timur Pulatovich**

Tarix fanlari nomzodi, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

**Abdalov Umidbek Matniyazovich**

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

**Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li**

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

### PSIXOLOGIYA FANLARI

**Shoumarov G'ayrat Baxromovich**

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

**Kryukova Tatyana Leonidovna**

Psixologiya fanlari doktori, professor

Kostroma davlat universiteti Belorusiya

**Karpinskiy Konstantin Viktorovich**

Psixologiya fanlari doktori, professor

Grodno davlat universiteti Belorusiya

**Urazbayeva Dilbar Abdullayevna**

Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

**Jumaniyazova Nasiba Ramatillayevna**

Psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

**Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna**

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

### IQTISODIYOT FANLARI

**Ruzmetov Baxtiyar**

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ma'mun Universiteti NTM

**Sherov Alisher Bakberganovich**

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

**Voronsova Yuliya Vladimirovna**

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Moskva davlat boshqaruvi universiteti

**Jabborov Umarbek Rustambekovich**

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

**Cho'ponov San'at Otanazarovich**

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

**Niyazmetov Islambek Masharipovich**

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

## PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI

### **Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'g'li**

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa  
doktori (PhD), professor

Ma'mun Universiteti NTM

### **Adilov Zafar Yunusovich**

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

### **Boltayev Abdurahim Amanovich**

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

### **Zoirov Erkin Xalilovich**

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Buxoro davlat texnika universiteti

### **Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna**

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

## TIBBIYOT FANLARI

### **Yuldashev Baxrom Sobirjanevich**

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

### **Abdullayev Ravshanbek Babajonovich**

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### **Esamuratov Aybek Ibragimovich**

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### **Samandarova Barno Sultonovna**

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### **Tajiyeva Zebo Baxodirovna**

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

## ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI

### **Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li**

Ma'mun Universiteti NTM

Журнал включен в перечень ВАК национальных научных изданий, рекомендуемых для публикации основных научных результатов диссертаций по медицинским наукам постановлением № 01-08/3068/17 от 27 сентября 2024 г.

Page Maker | Верстка | Саифаловчи: X. Mirzaxmedov

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)

ООО Тадqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Phone: (+998-94) 404-0000

**IQTSOD**

**1. Boltayev B. Mixliyev O.**  
QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION RIVOJLANISH SHAROITIDA KADRLAR TAYYORLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI.....7

**2. Djumabayeva Sh.**  
O‘ZBEKISTONDA NIKOH VA AJRALISH JARAYONLARINING IJTIMOY-DEMOGRAFIK O‘ZGARISHLARI.....11

**3. Raximov Matqurbon Ravshanbek O‘g‘li.**  
GLOBALLASHUV SHAROITIDA ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA‘MINLASHNING ZARURATI.....19

**4. Rustamboyev Kamronbek Otabek o‘g‘li.**  
O‘ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA DAVLAT TOMONIDAN QO‘LLAB-QUVVATLASH YO‘LLARI.....24

**5. Курбанова Дилфуза Баходировна.**  
ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И НАУЧНЫЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ОТРАСЛЕЙ СФЕР УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ.....27

**6. Egamberdiyev Shoxruxbek Davronbekovich.**  
KICHIK TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING XORIJ TAJRIBASI.....33

**FILOLOGIYA**

**1. Jo‘rayeva Muhayyo Abduljalilovna**  
O‘ZBEK VA INGLIZ SO‘ZLASHUV DISKURSIDA DISKURS MARKERLARINING INTERAKTIV-PRAGMATIK XUSUSIYATLARI.....38

**2. Raximova Dilfuza Masharip qizi.**  
“XX–XXI ASR BRITANIYA ROMANLARIDA SHARQ VA G‘ARB BADIY TAFAKKURI SINTEZI”.....42

**3. Baxtiyorov Asadbek Dilshod o‘g‘li.**  
ANTONIO JENKINSON VA UNING XIVA XONLIGIGA TASHRIFI.....46

**4. Ювашева Шоира Махаматовна**  
ВЛИЯНИЕ КУЛЬТУРНЫХ НОРМ НА ФОРМИРОВАНИЕ ЯЗЫКОВОЙ ЛИЧНОСТИ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ.....48

**PSIXOLOGIYA**

**1. Mashhura Sultonova Rustamboyevna.**  
YETUKLIK YOSHIDAGI AYOLLARDA O‘Z-O‘ZIDAN QONIQISH DARAJASIGA PSIXOLOGIK RESURLAR VA QADRIYATLAR TIZIMINING TA‘SIRI.....52

**2. Sherjanova Nodira.**  
MIGRANT OILALARDA TARBIIYALANAYOTGAN O‘SMIRLARDA PROSOTSIAL XULQ-ATVOR VA EMPATIYA MUNOSABATI.....58

<b>3. Odamova O'g'iljon Kenjayevna.</b> SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING YUZAGA KELISH SABABLARI.....	63
--	----

## TARIX

<b>1. Egamberdieva Nigora Azadovna. Raxmatullaeva Azada.</b> XORAZM VOHASIDA ILK DAVLATNING SHAKLANISHI JARAYONINING TAHLILI (ARXEOLGIK VA YOZMA MANBALAR ASOSIDA).....	68
<b>2. Abdullayev U.I. Kurshat Y. Satimov B.</b> OROLBO'YIDA MUDOKA ISTEHKOMLARNING KELIB CHIQISHI BO'YICHA BA'ZI BIR MULOHAZALAR.....	73
<b>3. Egamberdiyeva Zulfiya Zafar qizi.</b> OLTIN O'RDA DAVRIDA XORAZMDA IQTISODIY HAYOT.....	78
<b>4. Бобождонов У.</b> ҚЎЙҚИРИЛГАН ҚАЛЪА АНТИК ДАВР МАДАНИЙ МЕРОС МАРКАЗИ.....	82
<b>5. Umidbek Abdalov Matniyazovich. Ibdullayeva Oymarjon Shavkat qizi.</b> FROM THE HISTORY OF DIPLOMATIC AND ECONOMIC RELATIONS BETWEEN THE KHIVA KHANATE AND THE RUSSIAN EMPIRE AT THE BEGINNING OF THE 18 <sup>th</sup> - 20 <sup>th</sup> CENTURIES.....	86

## PEDAGOGIKA

<b>1. Ismoilova Gulnoza Olimboy qizi.</b> BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING 4 K KOMPETENSIYALARINI RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA RIVOJLANTIRISH.....	91
<b>2. Yunusxo'jayev Mustafo Zafarxo'ja o'g'li.</b> NAJMIDDIN KUBRO PEDAGOGIK QARASHLARI ASOSIDA TALABALARNING MA'NAVIY-AXLOQIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MODELI.....	96
<b>3. Radjapova Feruza Abdullayevna.</b> PEDAGOGIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARINING DIDAKTIK TASNIFI VA ULARNI PEDAGOGIK TA'LIMGA INTEGRATSIYA QILISH ALGORITMI...	106

## PEDAGOGIKA

**Ismoilova Gulnoza Olimboy qizi**

Urganch davlat pedagogika instituti

Pedagogika fakulteti

Pedagogika va psixologiya kafedrası o'qituvchisi

gulnozaismoilova758@gmail.com

**BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING 4 K KOMPETENSIYALARINI RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA RIVOJLANTIRISH**<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.21008937>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada bo'lajak o'qituvchilarning 4K kompetensiyalarini raqamli ta'lim muhiti asosida rivojlantirishning nazariy-pedagogik asoslari yoritilgan. XXI asr ta'lim tizimida kreativ fikrlash, tanqidiy fikrlash, kommunikativlik hamda hamkorlik kompetensiyalarini shakllantirish zamonaviy pedagog tayyorlashning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida talqin etiladi. Tadqiqotda raqamli texnologiyalarning ta'lim jarayoniga integratsiyalashuvi, elektron ta'lim platformalari, multimedia vositalari va interaktiv metodlarning bo'lajak o'qituvchilar kasbiy kompetentligini rivojlantirishdagi o'rni tahlil qilingan.

Shuningdek, maqolada raqamli ta'lim muhitining pedagogik imkoniyatlari, innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etiladigan ta'lim jarayonining samaradorligi hamda 4K kompetensiyalarining pedagogik faoliyatdagi ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Muallif tomonidan loyiha asosida o'qitish, muammoli ta'lim texnologiyalari, interaktiv metodlar va masofaviy ta'lim vositalarining kompetensiyalarni shakllantirishdagi ahamiyati yoritilgan. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish hamda zamonaviy raqamli pedagogik muhitni rivojlantirishda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

**Kalit so'zlar:** 4K kompetensiyalar, raqamli ta'lim muhiti, kreativ fikrlash, tanqidiy fikrlash, kommunikativlik, hamkorlik, pedagogik texnologiyalar, innovatsion ta'lim.

**Аннотация.** В данной статье освещаются теоретико-педагогические основы развития 4К-компетенций будущих учителей в условиях цифровой образовательной среды. Формирование креативного мышления, критического мышления, коммуникативности и сотрудничества рассматривается как одно из приоритетных направлений подготовки современного педагога в системе образования XXI века. В исследовании проанализирована роль цифровых технологий, электронных образовательных платформ, мультимедийных средств и интерактивных методов в развитии профессиональной компетентности будущих учителей.

Также в статье научно обоснованы педагогические возможности цифровой образовательной среды, эффективность образовательного процесса, организованного на основе инновационных подходов, а также значение 4К-компетенций в профессиональной педагогической деятельности. Особое внимание уделено проектному обучению, проблемным технологиям обучения, интерактивным методам и средствам дистанционного образования

как важным факторам формирования компетенций. Результаты исследования имеют важное теоретическое и практическое значение для совершенствования профессиональной подготовки будущих педагогов и развития современной цифровой педагогической среды.

**Ключевые слова:** 4К-компетенции, цифровая образовательная среда, креативное мышление, критическое мышление, коммуникативность, сотрудничество, педагогические технологии.

**Abstract.** This article highlights the theoretical and pedagogical foundations of developing future teachers' 4K competencies within a digital educational environment. In the modern education system of the twenty-first century, the formation of creativity, critical thinking, communication, and collaboration competencies is considered one of the priority directions in teacher training. The study analyzes the role of digital technologies, electronic educational platforms, multimedia tools, and interactive teaching methods in improving the professional competence of future teachers.

The article also substantiates the pedagogical potential of the digital educational environment, the effectiveness of innovative educational approaches, and the significance of 4K competencies in pedagogical activity. Particular attention is paid to project-based learning, problem-based education, interactive methods, and distance learning technologies as important means of competency development. The findings of the study have theoretical and practical significance for improving professional teacher training and developing a modern digital pedagogical environment.

**Keywords:** 4K competencies, digital educational environment, creativity, critical thinking, communication, collaboration, pedagogical technologies, innovative education.

**Kirish.** XXI asrda jamiyat taraqqiyoti axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq holda kechmoqda. Bu jarayon barcha sohalar qatori ta'lim tizimiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Zamonaviy ta'limning ustuvor vazifalaridan biri bo'lajak o'qituvchilarda raqobatbardosh kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishdan iboratdir. Shu nuqtai nazardan, 4K kompetensiyalari - kreativlik, kritik fikrlash, kommunikativlik va kollaboratsiya kompetensiyalari zamonaviy pedagogning asosiy kasbiy sifatleri sifatida e'tirof etilmoqda. Mazkur kompetensiyalarni rivojlantirishda raqamli ta'lim muhiti alohida pedagogik imkoniyatlarga ega.

Bugungi kunda raqamli ta'lim muhiti nafaqat bilim berish vositasi, balki innovatsion pedagogik faoliyatni tashkil etishning muhim omiliga aylanib bormoqda. Raqamli ta'lim muhiti tarkibiga elektron platformalar, masofaviy ta'lim tizimlari, multimedia vositalari, virtual laboratoriyalar, bulutli texnologiyalar, sun'iy intellekt hamda mobil ilovalar kiradi. Ushbu texnologiyalar o'qituvchi va talaba o'rtasidagi interaktiv hamkorlikni ta'minlash, individual ta'lim trayektoriyasini yaratish va mustaqil ta'lim faoliyatini rivojlantirish imkonini beradi. Shu sababli bo'lajak pedagoglarni tayyorlash jarayonida raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish dolzarb pedagogik muammolardan biri hisoblanadi.

Kreativ kompetensiya bo'lajak o'qituvchining yangicha g'oyalarni ilgari surishi, muammolarga noodatiy yechim topa olishi hamda innovatsion metodlarni qo'llay olish qobiliyatini ifodalaydi. Raqamli ta'lim muhiti kreativ fikrlashni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Masalan, multimedia dasturlari, animatsion platformalar va grafik dizayn vositalari orqali talabalar mustaqil loyiha, elektron taqdimot, video dars va interaktiv materiallar yaratadi. Bu esa ularning ijodiy salohiyatini namoyon qilishga xizmat qiladi. Ayniqsa, loyiha asosida o'qitish texnologiyasi kreativlikni rivojlantirishda samarali metodlardan biri hisoblanadi. Talabalar muayyan pedagogik muammoni yechish jarayonida mustaqil izlanadi, axborotlarni tahlil qiladi va innovatsion mahsulot yaratishga harakat qiladi. Natijada ularda yangilik yaratishga bo'lgan ehtiyoj shakllanadi. Biroq raqamli vositalarning mavjudligi har doim ham kreativlikni rivojlantiradi degan qarash to'liq to'g'ri emas. Ayrim hollarda texnologiyalardan noto'g'ri foydalanish talabalarda tayyor qoliplarga bog'lanib qolish holatini yuzaga keltiradi. Masalan, internetdagi tayyor shablonlar yoki sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan tayyor matnlardan haddan tashqari foydalanish mustaqil fikrlashni pasaytirishi mumkin.

Raqamli ta'lim muhiti kreativ fikrlashni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlarni yaratadi. Multimedia dasturlari, animatsion platformalar, virtual laboratoriyalar, grafik dizayn vositalari va interaktiv ilovalar yordamida talabalar o'z ijodiy salohiyatini namoyon etish imkoniga ega bo'ladi. Masalan, Canva, Prezi, Genially, Powtoon kabi platformalar orqali talabalar elektron taqdimotlar, animatsion videolar, infografikalar va interaktiv dars ishlanmalarini yaratadi. Bu jarayon ularda nafaqat texnologik ko'nikmalarni, balki estetik did, mustaqil qaror qabul qilish va kreativ yondashuvni ham rivojlantiradi.

Ayniqsa, loyiha asosida ta'lim texnologiyasi kreativ kompetensiyani shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalar muayyan pedagogik muammo ustida ishlash jarayonida yangi g'oyalarni izlaydi, turli axborot manbalarini tahlil qiladi va muammoning samarali yechimini topishga harakat qiladi. Masalan, bo'lajak o'qituvchilarga "raqamli dars loyihasi yaratish", "interaktiv metod asosida video dars tayyorlash" yoki "virtual o'quv muhitini ishlab chiqish" kabi topshiriqlarning berilishi ularning ijodiy va mustaqil fikrlashini rivojlantiradi. Shu bilan birga, bunday faoliyat talabalarda tashabbuskorlik, mas'uliyat va innovatsion fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi.

Shu sababli pedagog raqamli texnologiyalardan foydalanishda talabaning mustaqil va ijodiy faoliyatini rag'batlantiruvchi metodlarni qo'llashi zarur.

Tanqidiy fikrlash kompetensiyasi ham zamonaviy pedagog faoliyatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Tanqidiy fikrlash shaxsning axborotlarni tahlil qilish, solishtirish, baholash hamda asoslangan xulosa chiqarish qobiliyatini anglatadi. Raqamli ta'lim muhiti turli manbalardagi ma'lumotlardan foydalanish imkonini kengaytirgani sababli talabalarda axborotlarni saralash va baholash ehtiyoji ortadi. Elektron kutubxonalar, ilmiy ma'lumotlar bazalari, onlayn konferensiyalar va ta'lim platformalari orqali bo'lajak o'qituvchilar turli ilmiy qarashlarni o'rganadi va ularga tanqidiy yondashishni o'rganadi.

Bugungi kunda internet tarmog'ida yolg'on axborotlar, manipulyativ ma'lumotlar hamda tekshirilmagan manbalar sonining ortib borayotgani media savodxonlikni rivojlantirish zaruratini kuchaytirmoqda. Shu bois tanqidiy fikrlashni shakllantirishda media savodxonlik alohida o'rin tutadi. Bo'lajak o'qituvchi axborotning ishonchligini tekshirish, manbalarni solishtirish va dalillarga asoslangan xulosalar chiqarishni bilishi kerak. Bu esa kelajakda ta'lim jarayonida o'quvchilarga ham to'g'ri yo'naltirish berish imkonini yaratadi.

Kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishda ham raqamli ta'lim muhitining o'rni beqiyosdir. Virtual platformalar, videokonferensiyalar, forumlar va messengerlar orqali talabalar o'zaro fikr almashadi, ilmiy munozaralarda ishtirok etadi hamda jamoaviy taqdimotlar tayyorlaydi. Bu jarayon ularda nutq madaniyati, muloqot qilish, tinglash va o'z fikrini asoslab bayon etish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Ayniqsa, pandemiya davrida masofaviy ta'lim tizimining keng qo'llanilishi kommunikativ kompetensiyalarning naqadar muhim ekanligini ko'rsatdi. Chunki virtual muhitda samarali muloqot qila olmagan pedagog ta'lim jarayonini sifatli tashkil eta olmaydi.

Raqamli kommunikatsiya jarayonida etik me'yorlarga rioya qilish ham muhim masala hisoblanadi. Bo'lajak o'qituvchi onlayn muloqot madaniyatiga ega bo'lishi, virtual muhitda o'z fikrini to'g'ri va hurmat bilan ifodalashi zarur. Shu bilan birga, zamonaviy pedagog xorijiy tillarda raqamli muloqot olib borish ko'nikmalariga ham ega bo'lishi kerak. Chunki xalqaro ta'lim resurslari va xorijiy tajribalarni o'rganish jarayonida kommunikativ kompetensiyalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishda interaktiv metodlarning ahamiyati katta. "Debat", "Aqliy hujum", "Keys-stadi", "Munozara" kabi metodlarning raqamli platformalar asosida tashkil etilishi talabalarning faol muloqotga kirishishini ta'minlaydi. Natijada ular o'z fikrini erkin ifodalash, boshqalarni tinglash, muammolarni muhokama qilish va jamoaviy qaror qabul qilish ko'nikmalarini egallaydi. Biroq raqamli kommunikatsiyaning ayrim salbiy jihatlari ham mavjud. Ba'zi hollarda virtual muloqotning haddan tashqari ko'payishi jonli ijtimoiy aloqalarning kamayishiga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, qisqa yozishmalar va tayyor iboralardan foydalanish talabalarning nutq boyligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi ehtimoli ham mavjud.

Shu sababli raqamli va an'anaviy kommunikatsiya vositalaridan uyg'un foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Hamkorlik kompetensiyasi esa jamoada ishlash, umumiy maqsad sari birgalikda faoliyat olib borish hamda muammolarni hamkorlikda hal qilish qobiliyatini anglatadi. Raqamli ta'lim muhiti hamkorlik asosida ishlash uchun keng imkoniyat yaratadi. Google Docs, Moodle, Microsoft Teams va boshqa platformalar orqali talabalar birgalikda loyiha va topshiriqlarni bajaradi, o'zaro fikr almashadi hamda jamoaviy qaror qabul qiladi. Bu esa ularda mas'uliyat, liderlik, murosaga kelish va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Biroq ayrim holatlarda raqamli texnologiyalar jonli muloqotning kamayishiga ham sabab bo'lishi mumkin. Talabalarning ko'proq virtual muhitda ishlashi ijtimoiy faollikning pasayishiga olib kelishi ehtimoldan holi emas. Shu sababli ta'lim jarayonida an'anaviy va raqamli metodlarning uyg'unligini ta'minlash muhim hisoblanadi. Chunki texnologiya pedagogik jarayonning maqsadi emas, balki unga xizmat qiluvchi vosita bo'lishi kerak.

Hamkorlik kompetensiyasi nafaqat jamoada ishlash, balki nizoli vaziyatlarni boshqarish va muammolarni konstruktiv hal qilish ko'nikmalarini ham o'z ichiga oladi. Guruhli faoliyat jarayonida turli qarashlar va fikrlar yuzaga keladi. Shu sababli talabalar boshqalarning fikrini hurmat qilish, bahs-munozaralarda madaniyatli ishtirok etish hamda umumiy manfaat asosida qaror qabul qilishni o'rganadi. Bu esa kelajakdagi pedagogik faoliyatda sog'lom psixologik muhit yaratishga xizmat qiladi.

Shuningdek, raqamli ta'lim muhitida hamkorlik kompetensiyasini rivojlantirish talabalarning ijtimoiy faolligini oshiradi. Chunki jamoaviy faoliyat davomida talabalar o'z fikrini erkin bayon etishga, tashabbus ko'rsatishga va mas'uliyatni his qilishga odatlanadi. Ayrim talabalar individual ishlashda passiv bo'lishi mumkin, biroq jamoaviy faoliyat ularda faollik va ishtirokchanlikni kuchaytiradi. Shu jihatdan hamkorlikka asoslangan raqamli ta'lim metodlari shaxsning ijtimoiylashuviga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Biroq hamkorlik kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida ayrim muammolar ham mavjud. Masalan, barcha talabalar jamoada bir xil darajada faol ishtirok etmasligi yoki ayrim ishtirokchilarning passiv bo'lib qolishi kuzatilishi mumkin. Bundan tashqari, internet sifati yoki texnik imkoniyatlarning cheklanganligi ham jamoaviy ish samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli pedagog jamoaviy faoliyatni to'g'ri tashkil etishi, har bir talabaga aniq vazifa berishi hamda faol ishtirokni rag'batlantirishi zarur.

Raqamli ta'lim muhitida 4K kompetensiyalarini rivojlantirish samaradorligi bir qator omillarga bog'liq. Avvalo, oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy texnik infratuzilma, sifatli internet tarmog'i va elektron resurslarning mavjudligi muhimdir. Shu bilan birga, professor-o'qituvchilarning raqamli pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish zarur. Chunki texnologiyani bilishning o'zi yetarli emas, undan pedagogik maqsad asosida samarali foydalanish ham muhim hisoblanadi. O'qituvchi ta'lim metodlarini to'g'ri tanlay olishi, talabalarni mustaqil izlanishga yo'naltirishi va innovatsion yondashuvlarni qo'llay olishi kerak.

**Xulosa.** Raqamli ta'lim muhiti bo'lajak o'qituvchilarning 4K kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim pedagogik vosita sifatida xizmat qiladi. Mazkur muhit orqali kreativlik, tanqidiy fikrlash, kommunikativlik va hamkorlik ko'nikmalarini samarali shakllantirish mumkin. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalardan foydalanishda pedagogik maqsadning ustuvorligi, media savodxonlikni rivojlantirish hamda an'anaviy va innovatsion ta'lim metodlari uyg'unligini ta'minlash zamonaviy ta'limning muhim talabalaridan biri hisoblanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. N.A. Muslimov. Kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlash metodikasi. – Toshkent, 2016.
2. M. Ochilov. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan, 2019.
3. B.X. Xodjayev. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent, 2017.
4. R.H. Djurayev. Ta'lim menejmenti va pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2020.
5. Partnership for 21st Century Learning. Framework for 21st Century Learning. – Washington, 2019.

6. UNESCO. Education in a Digital World. – Paris, 2021.
7. Lev Vygotskiy. Tafakkur va nutq. – Moskva: Pedagogika, 1999.
8. John Dewey. Demokratiya va ta'lim. – Toshkent: O'qituvchi, 2008.

boshlab, ma'naviy-axloqiy kompetensiyani shakllantirish, ijtimoiy munosabatlar madaniyatini rivojlantirish, refleksiv-metagnitiv o'sish va dunyoqarash transformatsiyasigacha bo'lgan izchil jarayonni qamrab oladi.

Birinchi bosqich – qadriyatlarni anglash va o'zlashtirish. Bu bosqichda talaba ma'naviy-axloqiy tushunchalarni shaxsiy hayot va kasbiy faoliyat uchun muhim tamoyillar sifatida qabul qiladi. Halollik, adolat, shukronalik, vafodorlik, mehribonlik, kamtarlik va sabr kabi sifatlarning mazmunini anglash talabaning keyingi rivojlanishi uchun poydevor bo'ladi. Agar qadriyatlar ongli ravishda o'zlashtirilmasa, ular xulq-atvorda barqaror namoyon bo'lmaydi. Shu sababli modelda qadriyatlarga oid muloqot, hikmatlar tahlili, badiiy-pedagogik matnlar, tarixiy misollar va refleksiv savollar muhim vosita sifatida qo'llanadi.

Ikkinchi bosqich – ma'naviy-axloqiy kompetensiyani shakllantirish. Bu bosqichda qadriyatlar amaliy ko'nikma va xulq-atvor sifatida namoyon bo'la boshlaydi. Talaba axloqiy vaziyatlarda qaror qabul qiladi, o'z fikrini asoslaydi, boshqalarning nuqtayi nazarini hurmat qiladi, adolati muloqotga kirishadi va o'z harakatining oqibatini baholaydi. Mazkur kompetensiya pedagogik kasb uchun ayniqsa muhim, chunki o'qituvchi o'z shaxsiy namunasi orqali o'quvchilarga ta'sir ko'rsatadi.

Uchinchi bosqich – ijtimoiy munosabatlar madaniyatini rivojlantirish. Najmiddin Kubro merosida insonning kamoloti jamiyat bilan aloqadorlikda namoyon bo'ladi. Shaxsning ichki pokligi uning boshqalarga bo'lgan munosabatida, muloqot odobida, hamkorlikda, insonparvarlikda va fuqarolik mas'uliyatida ko'rinadi. Shu sababli talabalarda ijtimoiy-kommunikativ sifatlarni rivojlantirish ma'naviy tarbiyaning muhim ko'rsatkichi hisoblanadi.

To'rtinchi bosqich – refleksiv-metakognitiv rivojlanishni faollashtirish. Bu bosqichda talaba o'z xatosini ko'ra olish, uni tan olish, tuzatish, kelgusi rivojlanish maqsadini belgilash va o'z ustida ishlash ko'nikmalariga ega bo'ladi. Najmiddin Kubro ta'limotidagi tavba va o'zini tahlil qilish g'oyalari aynan shu bosqichning nazariy asosini tashkil etadi. Pedagogik amaliyotda bu bosqich portfoliolar, o'z-o'zini baholash varaqalari, refleksiv esselar va individual rivojlanish xaritalari orqali qo'llab-quvvatlanadi.

Beshinchi bosqich – dunyoqarash transformatsiyasi va komil inson idealiga yaqinlashish. Bu bosqichda talaba bilim, qadriyat, tajriba, refleksiya va ijtimoiy mas'uliyatni yagona hayotiy pozitsiyaga birlashtiradi. Komil inson ideali zamonaviy pedagogik ta'limda axloqiy mas'uliyatli, kasbiy kompetent, insonparvar, ijtimoiy faol va o'z ustida ishlaydigan shaxsni tarbiyalash maqsadi bilan uyg'unlashadi.

2-jadval. Ma'naviy rivojlanish blokida shakllantiriladigan ijobiy sifatlar va ularning salbiy muqobillari

Ijobiy sifat	Pedagogik mazmuni	Salbiy sifat	Tarbiyaviy xavf
Halollik	Rostgo'ylik, vijdonlilik va haqiqatga sodiqlik.	Yolg'onchilik	Ishonchning yo'qolishi va axloqiy beqarorlik.
Mas'uliyat	Vazifa va burchni ongli bajarish.	Mas'uliyatsizlik	Burchga loqaydlik, kasbiy sustlik.
Insonparvarlik	Boshqalarga hurmat, mehr va yordamga tayyorlik.	Shafqatsizlik	Inson manfaatiga befarqlik.
Kamtarlik	O'zini yuqori qo'yimaslik, oddiylik.	Kibr	Boshqalarni mensimaslik.
Sabr-toqat	Qiyinchilikni matonat bilan yengish.	Sabrsizlik	Shoshqaloqlik, hissiy beqarorlik.
Bag'rikenglik	Turli fikr va qarashlarni hurmat qilish.	Murosasizlik	Nizo va inkor kayfiyati.
O'zini nazorat qilish	Nafs, hissiyot va xatti-harakatni boshqarish.	Nafsga berilish	Hirs va impulsiv qarorlar.
Ilmga intilish	Bilim olish va o'zini rivojlantirishga ehtiyoj.	Johillik	O'rganishga befarqlik.